

SANOAT KORXONALARNING SAMARALI INVESTITSION FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR TAVSIFI

Aminov Bobir O'lmasovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nomozova Qumri Isoyevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarining samarali investitsion faoliyatini baholash va investitsion jozibadorligini oshirishga doir muhim nazariy va amaliy jihatlar keng yoritilgan. Muallif korxonalar uchun salohiyatli investorlarni jalb etish va investitsiyalarni samarali boshqarish jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan asosiy omillarni tizimli ravishda ko'rsatib bergan. Xususan, tabiiy-geografik, mehnat, moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion, intellektual, infratuzilma va institutsional salohiyatlar har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, chet el adabiyotlaridagi ilg'or nazariyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va investitsiyaviy strategiyalar haqida tahliliy fikrlar berilgan. Investitsiyaviy muhitni yaxshilash, investitsion pasportlar yaratish, zamonaviy infratuzilma va mehnat resurslarini rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, prognoz, investitsiya, potensial, modernizatsiya, venchur kapitali, risk, barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik, indikativ ko'rsatkich.

DESCRIPTION OF FACTORS AFFECTING THE IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE INVESTMENT ACTIVITIES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Aminov Bobir O'lmasovich

*Master's student of the Banking and Finance Academy of the Republic of
Uzbekistan*

Nomozova Kumri Isoyevna

*Professor of the Academy of Banking and Finance of the Republic of
Uzbekistan*

Abstract. This article extensively covers important theoretical and practical aspects of assessing the effective investment activity of enterprises and

increasing their investment attractiveness. The author systematically indicates the main factors that should be taken into account in the process of attracting potential investors and effectively managing investments for enterprises. In particular, natural and geographical, labor, financial, production, innovative, intellectual, infrastructure and institutional potential are comprehensively analyzed. Also, advanced theories in foreign literature, analytical views on the flow of foreign direct investment and investment strategies are given. The impact of improving the investment climate, creating investment passports, and developing modern infrastructure and labor resources on economic growth is substantiated.

Keywords: *industry, forecast, investment, potential, modernization, venture capital, risk, stability, financial security, indicative indicator.*

Salohiyatli investorlarning e'tiborini jalb qilish va samarali investitsion faoliyatni baholash uchun korxonalarning investitsion imkoniyatlari va ularning afzalliklarini aniqlash va namoyish qila olish kerak. Samarali investitsion faoliyatni baholashning maqsadi iqtisodiyotning real sektorida yangi korxonalarni yaratish va faoliyat yuritishining istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Investitsiyalar, investitsiya jarayonlari ishtirokchilari, ularning iqtisodiy munosabatlari va manfaatlarini, turli xil investitsiya manbalarini jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar yig'indisidan iborat jarayon investitsiya sohasi orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya sohasi tarmoqlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Maqbul investitsiya siyosati samarali investitsion faoliyatni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy rivojlanishning investitsiya ko'rsatkichlarini samarali boshqarishni talab qiladi. Samarali investitsion faoliyatni baholashda ko'plab omillar hisobga olingan, jumladan, rivojlanish darajasi, moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion salohiyat, intellektual salohiyat, moddiy-resurs salohiyati kabilar. Shuningdek, sanoat korxonalarining samarali investitsion faoliyati tarmoqning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda innovatsion rivojlanishni hisobga oladi. Iqtisodiyotni jadal sur'atlar bilan o'sishining sharti investitsiya jarayonlarini rivojlantirish ekanligini hisobga olinsa, hukumatning samarali investitsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi sohaga strategik investitsiyalarni jalb qilishning real imkoniyatlarini aniqlaydi va pirovardida raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy kompleksini tarkibiy o'zgartirishning tezligi va samaradorligini belgilaydi (Yusupova L.M., 2012.).

Chet el adabiyotida bu sohada boy, ilg'or tajriba to'plangan bo'lib, investitsiyalar faoliyatini "katta pul topish, daromad olish yoki kapitalga erishish uchun pul sarflash" jarayoni sifatida tasniflanadi (Rozenberg Dj.M., 1997.). Pul muomalasi investitsiya jarayonini o'rganish metodologiyasida ham ustunlik qilib, alohida urg'u beriladi (Broverman S.A., 1991.).

Binobarin, investitsiya jarayoni odatda investitsiya bozoridagi faoliyat bilan bog'liq bo'lib, (Shumpeter Y., 1982.) uning holatini makroiqtisodiy muvozanatning xususiy ko'rinishi sifatida qaraladi. Masalan, Dj.Xiks IS-LM modelida (investitsiyalar – jamg'arma – likvidlilik – pul) investitsiya jarayonining ham tovar bozorlariga, ham investitsiyalar va jamg'armalarga bog'liqligi ko'rsatilgan (Igonina L.L. Investitsii // Pod. red. V.A.Slepova. – M., 2005.). Investitsiya jarayoni yetakchi iqtisodchilar tomonidan bozor iqtisodiyoti doirasida turli shakl va darajadagi investitsiyalarning birgalikdagi harakati sifatida qaraladi (Xayek F., 1988.; Sharp U.F., Aleksander G.Dj., Beyli Dj., 1997.).

Dj.Keyns jamg'armani daromadning iste'moldan ortib ketishi deb belgilaydi. Ushbu ortiqcha miqdorning ma'lum bir qismi nafaqat alohida fuqarolar, balki markaziy hukumatlar, mahalliy hokimiyatlar va tijorat tashkilotlari tomonidan jamg'ariladi. U.Sharp jamg'armani "kechiktirilgan iste'mol" deb ta'rifladi (Sharp U.F., Aleksander G.Dj., Beyli Dj., 1997.). Demak, investitsiya jarayoni yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarni shakllantirishdan boshlanib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari, texnologiyalar, maishiy va ijtimoiy infratuzilmani yaratish bilan yakunlanadi.

Investitsion jarayonlarning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari ishbilarmonlik muhiti va investitsiya sohasining holati hamda rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli xil parametrlarga bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy agentlarning investitsiya faolligini rag'batlantirish yoki cheklash ta'sirini aniqlab beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, investitsion jarayonlarning rivojlanishida ushbu omillarning ta'sirini hisobga olish zaruriyati investitsion harakatlar modeliga muvofiq keluvchi sarmoyaviy strategiya va investitsiya siyosatini shakllantirishni taqozo etadi (Persuxov V.I. Parametri razvitiya investitsionnix protsessov [Elektronniy resurs] // Rejim dostupa: <http://dom-hors.ru/issue/pep/2012-1/pertsukhov.pdf>).

Investitsion jarayon doirasida iqtisodiyotning real sektori sub'ektlari tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni aniq investitsiya maqsadlari uchun (investitsion va innovatsion loyihalar va dasturlarni amalga oshirish) joylashtirishni ajratib ko'rsatish kerak. Investitsion resurs egalari va

ularning iste'molchilari o'rtasidagi bog'liqlik aksariyat hollarda moliya bozorida faoliyat yurituvchi moliyaviy vositachilik institutlari (banklar, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari) tomonidan amalga oshiriladi (Bocharov V.V., 2009.).

Maqsadlarni shakllantirish va investitsion faoliyat yo'nalishlarini ishlab chiqish korxonaning investitsiya strategiyasini bilan bog'liq. Investitsiyalashning aniq ob'ektlari investitsiyalarni rejalashtirish bosqichida tanlab olinadi. Ikkinchi bosqichning tarkibi to'g'ridan-to'g'ri va moliyaviy investitsiyalarning hususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Investitsion strategiyani ishlab chiqish – bu shakllantirilgan investitsiya manbalari tarkibini va ularning taqsimlanishini optimallashtirish, investitsiya maqsadlarini belgilash, investitsion faoliyatning eng muhim jihatlari bo'yicha investitsiya siyosatini ishlab chiqishdan iborat keng miqyosli ijodiy jarayonni o'zida ifoda etadi (Laxmetkina N.I., 2006.).

Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida xizmatlar sohasi yetakchi o'rinni egallaydi va bundan keyingi yillar tendensiyasi buni tasdiqlaydi.

Avval to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar savdo va moliya kabi sohalarda to'plangan bo'lsa, ammo so'nggi yillarda boshqa bir qator sohalarda (aloqa, ko'chmas mulk, elektr energiyasi, suv ta'minoti, turli xil biznes va boshqalar) jadal o'sish kuzatilmokda.

Shuni ta'kidlash kerakki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mavjud nazariyalarining aksariyati zamonaviy iqtisodiy qarashlar uch yo'nalishi: firma nazariyasi, xalqaro savdo nazariyasi va xalqaro moliya nazariyasi asosida vujudga kelgan.

O'rganilgan xorijiy nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi nisbatan darajada, iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yaxshi istiqbollariga ega korxonalarda iqtisodiy ustun darajada jamlangan. Bundan tashqari, ichki va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi, an'anaviy tarzda ularni amaliyotda qo'llanilishini kengaytiradi va qonuniy rag'batlantiradi.

Investitsiyalarni faollashtirish siyosati maqsadga muvofiq ravishda bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Asosiy yo'nalishlarga quyidagilar kiradi (Rusavskaya A.V. Investitsii i investitsionniy potensial predpriyatiy [Elektronniy resurs] // Finansi i kredit. Rejim dostupa: <http://www.uecs.ru>):

investitsiya to'g'risidagi qonun xujjatlar bazasini rivojlantirish;

imtiyozlar berish orqali mahalliy hokimiyat organlari tomonidan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash;

tarmoqlarning investitsion ochiqqligi va jozibadorligini, ularning investitsiya imidjini, jumladan, korxonalar kataloglarini, investitsiya loyihalari kataloglari va boshqalar tuzish orqali shakllantirish;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha faol ish olib borish;

investitsiya infratuzilmasini shakllantirish;

Jahonda qabul qilingan zamonaviy uslublar asosida ishlab chiqilgan standartlarga asoslangan investitsiya loyihalarining iqtisodiy maqsadga muvofiqlik darajasini oshirish, shuningdek sohalarni rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hisobga olgan holda ushbu loyihalar mezonlarini tanlash alohida ahamiyatga ega. Dasturlarning ishlash darajasini oshirish uchun ushbu faoliyatga banklarni jalb qilish muhimdir. Shuningdek, salohiyatli investorlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan korxonalarning investitsiya pasportini tuzish istiqbolli vazifalardan biridir (Kovalev V.V., Ivanov V.V., Lyalin V.A., 2010.). Bundan tashqari, tarmoqning samarali investitsion faoliyati va uning rivojlanishini baholash uchun tarmoq investitsion jarayonlariga ta'sir qiluvchi shart-sharoit va omillarni aniqlash kerak. Bu jihatdan, bir qator yondashuvlar mavjud. Masalan, S.V.Zenchenko, M.A.Shemyotkinalar (Zenchenko S.V., Shemyotkina M.A., 2007.) o'z ishlarida korxonalarning samarali investitsion faoliyatiga eng katta ta'sir etuvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatishgan. Shunday kelib chiqib, korxonalarning samarali investitsion faoliyatini baholash uchun quyidagi omillar eng muhim hisoblanadi:

resurs va xom-ashyo (tabiiy resurslarning asosiy turlarining balans zahiralari bilan o'rtacha hisobda ta'minlanishi);

ishlab chiqarish (tarmoq iqtisodiy faoliyatning umumiy natijasi);

iste'mol (korxonalar va aholining umumiy harid qobiliyati);

infratuzilma (tarmoqning iqtisodiy - jo'g'rofiy holati va uning infratuzilmasi);

intellektual (xodimlarning ma'lumot darajasi);

institutsional (bozor iqtisodiyotidagi yetakchi institutlarning rivojlanish darajasi);

innovatsion (ilmiy-texnikaviy yutuqlarni tarmoqqa tadbiq etish darajasi).

Yuqoridagi yondashuvni hisobga olgan holda, biz ushbu va boshqa omillarning har biriga qisqacha izoh beramiz:

1. Tabiiy - geografik salohiyat – bu tarmoq korxonalarining resurs – xom ashyo salohiyati va geografik joylashuvining yig‘indisidir. Korxonalarning resurs – xom ashyo salohiyati texnik va xo‘jalik yuritish rivojlanishning muayyan darajasida ayni vaqtda va kelajakda hamda boshqa faoliyatlarda foydalanish mumkin bo‘lgan iqtisodiy resurslar yig‘indisining bir qismi sifatida tavsiflanadi.

2. Mehnat salohiyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu korxonalarning demografik salohiyatidir. Salohiyatli investor uchun nafaqat ishchi kuchining soni, balki sifat jihati ham muhim ahamiyatga ega. Sifatli tavsifga korxona xodimlarining kasbiy-malakaviy tayyorgarlik darajasi, ularning ma‘lumoti, yoshi, jinsi va sog‘lig‘i kiradi.

Mehnat salohiyati xodimlarning umumiy soni, o‘rtacha oylik ish haqi, xodimlarning yosh tarkibi, nafaqa oldi yoshidagi shaxslarni ajratish kabi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, korxonalarning mehnat salohiyatini baholashda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

mehnat resurslarining mavjudligi;

mehnat resurslarining kasbiy va ma‘lumot darajasi;

malakali ishchilarning mavjudligi.

Zamonaviy sharoitda yetarlicha malakali mehnat resurslarning mavjudligi korxona investitsion jozibadorligining muhim elementi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining 67,5 foizini 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi, shuning uchun O‘zbekiston yoshlari mamlakatning iqtisodiy kelajagi va barqarorligini belgilashda asosiy kuch deb sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka oid Milliy strategiyada mehnat bozori va bandlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini amalga oshirish nuqtai nazaridan samarali investitsion faoliyat va investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

kadrlar salohiyatini har tomonlama rivojlantirish;

kadrlar malakasi darajasini oshirish;

iqtisodiy faoliyatning investitsion faolligini hisobga olgan holda mamlakatdagi mehnat bozori ehtiyojlarini o‘rganish tizimini yaratish.

3. Ishlab chiqarish salohiyati korxonalar ishlab chiqarish sohasi holatini va daromadning mumkin bo‘lgan o‘sishini tavsiflaydi. Bundan tashqari, ayrim mualliflarning fikriga ko‘ra, korxonalarning samarali investitsion faoliyatini baholash doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

ishlab chiqarish quvvatlarini baholash;
ularning qayta jihozlashga yaroqliligi yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishda foydalanish;

ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan uskunalarning mavjudligini aniqlash;

ishlab chiqarish infratuzilmasini baholash (Asaul A.N., Karpov B.M., Perevyazkin V.B., Starovoytov M.K., 2008.).

Bunday baholash bizga korxona resurslaridan samarali foydalanishni aniqlashga imkon beradi.

4. Samarali investitsion faoliyat fan va texnikaning rivojlanish darajasini hamda korxonalar ishlab chiqarishiga innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini ko'rsatadi. Aksariyat samarali investitsion faoliyatni rivojlantirish takror ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish va inson kapitalini shakllantirishning muhim elementlaridan biriga aylanadi.

5. Institutsional salohiyat yetakchi bozor institutlarining rivojlanish darajasini va ular faoliyatining samaradorligini anglatadi. Tovar, xom ashyo, moliyaviy birjalarning va boshqa bozorlar samaradorligi va ishonchliligi bozor institutlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu sababli institutsional salohiyatni shakllantirish jarayonini va uning eng muhim yo'nalishlarini baholash alohida ahamiyatga ega:

mulk xuquqini himoya qilish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish;

raqobat sharoitlarini tenglashtirish, iqtisodiyotni tartibga solish;

biznesni axborot bilan ta'minlanganligini takomillashtirish;

buxgalteriya hisobi va statistikani isloh qilish.

Ular investitsion faollikni rag'batlantirish va iqtisodiyotning institutsional salohiyatini shakllantirishga qaratilgan.

6. Tarmoqning samarali investitsion faoliyatni rivojlantirishning yana bir muhim omili ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Infratuzilma salohiyati korxonalarning iqtisodiy - jug'rofiy holati va uning infratuzilmasi ta'minlanganligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, so'nggi yillarda transport kommunikatsiyalari, suv va gaz quvurlari, muhandislik - kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalarning sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. 2022 yilda xalqaro standartlariga javob beradigan 526 km avtomobil yo'llarini qurilib, rekonstruksiya qilindi, Qamchiq dovonidagi 71 km yo'l qismi rekonstruksiya qilinib, bir qator ko'priklar va yo'l o'tkazgichlari yangilandi. Ushbu maqsadlar uchun 1,2 trln so'mdan ortiq mablag', shu jumladan, Respublika yo'l jamg'armasi tomonidan 920 mlrd so'm va xalqaro

moliya institutlari – Osiyo Taraqqiyot banki, Islom Taraqqiyot banki va Arab muvofiqlashtirish guruhi tomonidan qariyb 120 mln AQSh dollari miqdordagi mablag‘lar yo‘naltirildi. Energetika tizimini, kimyo sanoatini, ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun yetakchi xalqaro tashkilotlar, rivojlangan davlatlar va yirik banklardan kreditlar jalb qilindi.

Yo‘l infratuzilmasi tizimini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida Hukumat Osiyo Tarraqqiyot Banki (OTB), Jahon banki (JB), Islom Taraqqiyot Banki (ITB), Saudiya rivojlanish jamg‘armasi, Quvayt arab iqtisodiy rivojlanish jamg‘armasi kabi xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘laridan jalb etgan holda istiqboldagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Korxonalar infratuzilma salohiyatining tahlili shundan dalolat beradiki, u ko‘p jihatdan korxonalarning iqtisodiy-jug‘rofiy holatiga; korxonalarning hududiy joylashuvi (tashqi chegaralar, yetkazib beruvchilar va iste‘molchilarga yaqinligi); infratuzilmani o‘zlashtirilganligi, korxonalarni joylashtirish va xavfsizligini ta‘minlash; hududdagi aloqa tizimini rivojlantirishga bog‘liqdir.

7. Moliyaviy salohiyat doirasida tarmoqdagi foyda va zarar bilan ishlaydigan korxonalar ulushi aniqlanadi, korxonalarning rentabellik darajasi hisobga olinadi, bunda tarmoqning soliq solinadigan bazasi hajmi tarmoq byudjetining daromad tarkibiy qismini belgilab beradi. Moliyaviy salohiyat ijtimoiy sohani, korxona infratuzilmasini, ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Moliyaviy salohiyat mezonlari quyidagilardan iborat:

- investitsiya loyihalari uchun zarur bo‘lgan hajmda kapital jalb qilish imkoniyati;

- likvidlik va moliyaviy barqarorlik shartlarini bajarish uchun yetarli bo‘lgan o‘z kapitalining mavjudligi;

- investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi;

- joriy va kelajakdagi moliyaviy holatning shaffofligini ta‘minlaydigan samarali moliyaviy boshqaruv tizimining mavjudligi.


8. Korxonaning intellektual kapitali tarkibiga xodimlarning bilim va ko‘nikmalari, jarayonlar, g‘oyalar, ishlanmalar, loyihalar, ixtirolar, foydalaniladigan texnologiyalar, shuningdek yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar bilan munosabatlar kiradi. Bu o‘z ichiga dasturiy ta‘minot, biznes yuritish usullari, qo‘llanmalar, hisobotlar, nashrlar va ma‘lumotlar bazalarini oladi. Unga nafaqat bilim va ma‘lumotlarning o‘zi, balki ulardan foydalanish, uzatish va saqlashni ta‘minlaydigan nomoddiy infratuzilma ham kiradi.

Tabiiyki, intellektual kapitalga patentlar, savdo markalari, mualliflik huquqlari, internet domen nomlari ham kiradi. Demak, korxonalarning samarali investitsion faoliyati shunday omillar ta'sirida shakllanadiki, ularni baholash va tahlil qilish samarali investitsion faoliyat va investitsion jozibadorlikni rivojlantirish yo'llari va yo'nalishlarini aniqlashga imkon yaratib beradi.

O'zgaruvchan omillar yaxshilangan taqdirda investitsiyalarning jozibadorligi o'zgarmas omillarning ahamiyatiga bog'liq bo'lmaydi. Shuning uchun korxonalar investitsiya siyosatining asosida investitsiya salohiyatini kompleks ravishda hisobga olish va baholashning integrallashgan uslublar turadi.

Investitsiyaning rivojlanishiga va korxonalarning salohiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar 1-rasmda keltirilgan.

Umuman olganda, korxonalarning samarali investitsion faoliyatni rivojlantirish asosan ishlab chiqarish xususiyatlarini, korxonani ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligini, korxonalar mahsulotlariga iste'mol talabini va boshqalarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi.



1-rasm. Korxonalar samarali investitsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy omillari

Korxonalarning innovatsion salohiyati rivojlanishini baholash va uning

o'sish sur'atlarini aniqlashda korxonalarning umumiy samarali investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish zarur, jumladan:

tarmoqda yuritilayotgan investitsiya siyosati;

qulay investitsiya muhitini shakllantirish;

ITTKIning moliyalashtirishning mavjudligi;

korxonalar moliyaviy sektorining rivojlanish darajasi;

soliq va bojxona imtiyozlari;

ishbilarmonlik muhitini yuritish shartlari;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shartlari;

sohada meyoriy-xuquqiy bazani takomillashtirish;

investitsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

innovatsion faollik, ya'ni doimiy ravishda ishlab chiqarishni kengaytirish, takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yangilash imkoniyati;

korxonalarning mehnat va intellektual salohiyati hamda malakali kadrlar mavjudligi;

korxonalarning moliyaviy salohiyati, korxonalarning daromadliligi va rentabelligi, tarmoq byudjetining daromadliligi.

Tarmoqdagi barcha omillarni yaratish va yaxshilash mumkin emas ekan, bundan samarali investitsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun eng samarali omillarni tanlash kerak, degan fikr kelib chiqadi.

Yuqoridagi asosiy tarkibiy qismlarni baholash korxonalar samarali investitsion faoliyati iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan muvozanatli rivojlanish imkoniyatlarini anglatadi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Demak, chet ellik sarmoyadorlar uchun asosiy va eng muhim omil – bu internet resurslari orqali korxonalarning hozirgi siyosiy, iqtisodiy ahvoli va samarali investitsion faoliyati to'g'risida xabardorligi hisoblanadi va kelajakda bu investitsion jozibadorlikni hamda korxonalarning umuman ijobiy imidjini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Investitsiya qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarning bosqichma-boqich yaratilishi tarmoqning investitsion faollikni rivojlantirishdagi rolini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda, mahalliy va xorijiy kapital faoliyatini tartibga soluvchi barqaror huquqiy bazaning mavjud emasligi investor uchun asosiy cheklovchi omil hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonun hujjatlaridagi doimiy o'zgarishlar va ko'p sonli qonun osti hujjatlar bilan bir qatorda huquqiy-ijtimoiy institutlari huquqlarni inkor qilish, ushbu sohadagi xorijiy ishbiarmonlar faoliyatini bir muncha

murakkablashtirmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, samarali investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab omillarni ko'rib chiqib va ularni har birini batafsil o'rganish bilan uning barqaror investitsion rivojlanishiga erishish mumkin.